

HINDISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI IQTISODIY STRATEGIK HAMKORLIKNI TAHLIL QILISH

*JIDU, Xalqaro moliya va investitsiyalar
kafedrasi o'qituvchisi*

Ishmuradov Bahodir sunnatovich

ishmuradov@uwed.uz +998909863538

JIDU, XIM fakulteti, Tashqi iqtisodiy

Faoliyat yo'nalishi magistranti

Pardayev Xusniddin Jahongir o'g'li

xusniddinpardayev710@gmail.com

+99888122555

Anotatsiya.

Ushbu ilmiy maqolada 2009-yilda imzolangan Hindiston–Koreya Respublikasi keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik shartnomasi (CEPA) iqtisodiy diplomatiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bitim ikki davlat o'rtasida savdo va investitsion hamkorlikni rivojlantirish, texnologiyalar almashinuvini jadallashtirish hamda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, Janubiy Koreyaning "New Southern Policy" va Hindistonning "Look East Policy" strategiyalarini uyg'unlashtirgan. Maqolada CEPA doirasida savdo hajmi va investitsiyalar dinamikasi, texnologik hamkorlik, shuningdek bitimni amalga oshirish jarayonidagi imkoniyat va cheklovlar tahlil qilinadi hamda CEPA Hindiston–Koreya iqtisodiy aloqalarining muhim institutsional mexanizmi sifatida baholanadi.

Abstract.

This scientific article analyzes the India–Republic of Korea Comprehensive Economic Partnership Agreement (CEPA), signed in 2009, from the perspective of economic diplomacy. The agreement aims to expand bilateral trade, deepen investment cooperation, promote high-technology exchange, and strengthen economic integration, while serving as an integration bridge between South Korea's "New Southern Policy" and India's "Look East Policy." The article examines post-CEPA outcomes, including trade dynamics, trade imbalances, foreign direct investment flows, and the development of joint projects and technological cooperation, as well as the diplomatic and geoeconomic significance of the agreement, its contribution to regional competitiveness, and the opportunities and constraints encountered during its implementation. CEPA is assessed as a key institutional mechanism in India–Korea economic relations and regional cooperation.

Аннотация.

В данной научной статье представлен анализ Соглашения о всеобъемлющем экономическом партнёрстве между Индией и Республикой Корея (СВЭП), подписанного в 2009 году, с точки зрения экономической дипломатии. Соглашение направлено на расширение взаимной торговли, углубление инвестиционного сотрудничества, развитие технологического обмена и усиление экономической интеграции, а также выступает интеграционным мостом между инициативой Республики Корея «Новая южная политика» и индийской политикой «Взгляд на Восток». В статье рассматриваются ключевые результаты реализации СВЭП, включая динамику двусторонней торговли, инвестиционных потоков и совместных проектов, а также оценивается его дипломатическое и геоэкономическое значение, вклад в укрепление стратегического партнёрства и повышение конкурентоспособности в Азиатском регионе, с учётом возникающих возможностей и ограничений. В данном исследовании соглашение СВЭП оценивается как важный институциональный механизм индийско-корейских экономических отношений и представлены комплексные выводы о его роли в региональном сотрудничестве.

Kalit so‘zlar: Hindiston–Janubiy Koreya, CEPA, iqtisodiy diplomatiya, savdo hamkorligi, investitsiyalar, strategik sheriklik, mintaqaviy integratsiya.

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda globallashuvning chuqurlashuvi, davlatlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro savdoning keskin o‘sishi iqtisodiy diplomatiyaning rolini sezilarli darajada oshirdi. Bugungi kunda iqtisodiy diplomatiya nafaqat savdo aloqalarini rivojlantirish vositasi, balki davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy ta’sirni kengaytirish, innovatsion va texnologik hamkorlikni kuchaytirish, hamda milliy manfaatlarni himoya qilishning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda. Osiyo mintaqasida ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar tashqi siyosiy strategiyalarida iqtisodiy diplomatiya tashabbuslari ustuvor o‘ringa chiqdi. Shu nuqtayi nazardan, Hindiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning chuqurlashuvi, ayniqsa, 2009-yilda imzolangan Comprehensive Economic Partnership Agreement (CEPA) bitimi alohida ilmiy e’tibor talab qiladi. Mazkur bitim ikki davlat savdo-iqtisodiy munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqib, tarif va notarif to‘siqlarni qisqartirish, sarmoya oqimlarini yengillashtirish, intellektual mulk himoyasini mustahkamlash va yuqori texnologiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirishni ko‘zda tutgan. CEPA bitimi imzolanishi nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki diplomatik va strategik nuqtayi nazardan ham muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Chunki Janubiy Koreya Hindistonni Yangi Janub Siyosati (“New Southern Policy”) doirasida asosiy hamkor sifatida tanlagan bo‘lsa,

Hindiston esa Koreyani “Act East Policy”ning muhim bo‘g‘ini sifatida ko‘rmoqda.¹ Shu bois ushbu bitim ikki davlatning siyosiy yaqinlashuvi va geoiqtisodiy manfaatlariga ham xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Hindistonning tez rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti, demografik ustunligi va IT–innovatsion salohiyati Koreyaning yuqori texnologiyalar, avtomobilsozlik, elektronika va infratuzilma bo‘yicha yetuk tajribasi bilan uyg‘unlashib, o‘zaro manfaatli hamkorlik uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. CEPA bitimi esa ushbu imkoniyatlarni huquqiy va institutsional asos bilan mustahkamlaydi.

Asosiy qism

CEPA (Comprehensive Economic Partnership Agreement) Hindiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi savdo, xizmatlar, investitsiya, intellektual mulk va texnologiya sohalarini qamrab olgan keng qamrovli iqtisodiy bitimdir. Bitimning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:Bojxona tariflarini kamaytirish;Koreya kompaniyalarining Hindistonga sarmoya kiritishini rag‘batlantirish;IT, avtomobilsozlik, elektronika va startup sohalarida hamkorlikni kuchaytirish;

Iqtisodiy integratsiya orqali diplomatik ishonchni mustahkamlash.

2009-yildan 2023-yilgacha ikki davlat o‘rtasidagi savdo hajmi 10 milliard AQSh dollaridan 23 milliard dollarga oshgan. Bu, o‘z navbatida, CEPA’ning iqtisodiy diplomatiya vositasi sifatida amaliy natijadorligini ko‘rsatadi.2009-yildan 2023-yilgacha ikki davlat o‘rtasidagi savdo hajmi 10 milliard AQSh dollaridan 23 milliard dollarga oshgan.² Bu, o‘z navbatida, CEPA’ning iqtisodiy diplomatiya vositasi sifatida amaliy natijadorligini ko‘rsatadi.

Bitimning Asosiy Xususiyatlari va Yo‘nalishlari Hindiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi Comprehensive Economic Partnership Agreement — bu ikki davlat o‘rtasida faqat savdo emas, balki keng strategik va iqtisodiy hamkorlikni nazarda tutuvchi bitimdir. Bitim bir nechta muhim sohalarini qamrab oladi: tovar savdosi (goods), xizmatlar (services), investitsiya, intellektual mulk huquqlari (IPR), texnologiya, shuningdek, bojxona va bojxona hamkorligi, raqobat tartiblari va savdo tartibga solish (trade facilitation) kabi komponentlarga ham alohida e‘tibor berilgan.³ Shuningdek, bitimda ikkala mamlakat o‘rtasida kelajakda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish uchun rejalar tuzilgan, ya’ni strategik iqtisodiy yaqinlashuv ko‘zda tutilgan.

Bojxona Tariflari va Savdo To‘siqlarini Yengillashtirish Bitim doirasida ikkala tomon uchun tarif imtiyozlari belgilangan: Janubiy Koreya Hindistondan import

¹Banik, N. & Kim, M. (2022). India–Republic of Korea CEPA: Assessment and Future Path.<https://www.mdpi.com/2227-7099/10/5/104>


² Park, J. (2021). Economic Diplomacy in East Asia. Seoul: KDI Press.

³ Sharma, P. (2023). India’s Strategic Economic Diplomacy. New Delhi: Springer India.

qilinadigan mahsulotlar bo'yicha tariflarni sezilarli darajada pasaytirishi rejalashtirilgan. Tariflarning bosqichma-bosqich kamaytirilishi jadvali tuzilgan bo'lib, mahsulot chiziqlari "kategoriya"larga bo'lgan. Shu bilan birga, ba'zi mahsulotlar (masalan, sezgir mahsulotlar) "EXC" kategoriyasiga kiritilgan bo'lib, ularda tariflar kamaytirilmaydi yoki olib tashlanmaydi.

Investitsiyalarni Rag'batlantirish bitim orqali chet el investitsiyalarini qulaylashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Masalan, kompaniyalar ikki tomonlama hududlarda 65% gacha egalik qilishi mumkinligi kelishilgan. Shuningdek, "Korea Plus" tashabbusi orqali Koreyaning Hindistonda sarmoya kiritishi rag'batlantirilmoqda. Hindistonda kichik va o'rta korxonalar (SME) va startaplar uchun alohida Koreya-India startap markazi tashkil etilgan, bu ham texnologik va biznes hamkorligini kuchaytiradi.

2009-yildan 2023-yilgacha ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 10 milliard AQSh dollaridan 23 milliard dollarga oshgan. Bu, o'z navbatida, CEPA'ning iqtisodiy diplomatiya vositasi sifatida amaliy natijadorligini ko'rsatadi.⁴



1-rasm. CEPA imzolanganidan keyingi o'zaro savdo hajmining (mlrd. AQSh dollari) o'sishi

CEPA va iqtisodiy diplomatiya o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiy diplomatiya — bu davlatning xalqaro maydonda iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, himoya qilish va kengaytirishga qaratilgan strategik siyosatdir. U nafaqat savdo va investitsiyalar, balki

⁴ Kim, H.J. (2020). Trade Complementarities between India and Korea: A Quantitative Study. Journal of Asian Economics, 71(3), 102–120.

texnologiya, ta'lim, madaniy hamkorlik va turizm sohalarini ham o'z ichiga oladi. Aslida, iqtisodiy diplomatiya orqali davlatlar o'z iqtisodiy kuchini siyosiy ta'sir vositasi sifatida ishlatadi, ya'ni iqtisodiy vositalar bilan geosiyosiy manfaatlarni uyg'unlashtiradi.

Hindiston va Janubiy Koreya o'rtasida 2009-yilda imzolangan Comprehensive Economic Partnership Agreement (CEPA) bitimi esa iqtisodiy diplomatiya kontsepsiyasini amalda namoyon qiluvchi eng yaqqol misollardan biridir. CEPA ikki tomonlama munosabatlarni faqat savdo chegarasida emas, balki strategik, texnologik va madaniy sohalarida ham kengaytirishga xizmat qiladi.

CEPA doirasida ikki davlat o'rtasida bojxona tariflari va boshqa savdo to'siqlari bosqichma-bosqich kamaytirildi. Bu esa Hindiston va Koreya korxonalari uchun yangi bozorlar ochildi va mahsulotlar almashinuvi jadallashdi. Savdo diplomatiyasi yordamida davlatlar nafaqat iqtisodiy foyda olishadi, balki o'z siyosiy ishonchini ham mustahkamlashga erishadi. Shu tariqa, CEPA Hindiston va Koreya o'rtasida savdo diplomatiyasining samarali vositasiga aylandi.

CEPA bitimi investitsiya diplomatiyasi orqali ikki tomonlama sarmoyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Koreya kompaniyalari Hindistonga sarmoya kiritish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, Hindistonning tez rivojlanayotgan bozor salohiyati koreys investorlar uchun jozibador bo'ldi. Shu yo'l bilan, CEPA nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki strategik ishonchni ham shakllantirdi.

Texnologik diplomatiya va innovatsion hamkorlik

CEPA texnologik diplomatiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bitim doirasida IT, avtomobilsozlik, elektronika va startaplar sohalarida hamkorlik kengaydi. Koreya kompaniyalari Hindiston texnologik bozoriga kirib, tajriba va texnologiyalarini yo'naltirgan bo'lsa, Hindiston startaplari va IT sohasi Koreya bozorlarida qo'llanila boshladi.⁵Bu esa ikki davlat o'rtasida texnologik diplomatiyaning amaliy samaradorligini oshirdi.

Iqtisodiy diplomatiya — bu davlatning iqtisodiy manfaatlarini xalqaro maydonda diplomatik vositalar orqali ilgari surish siyosatidir. CEPA bitimi orqali Hindiston va Koreya:

Savdo diplomatiyasi sohasida — bojxona to'siqlarini qisqartirdi;


Investitsiya diplomatiyasi orqali — Koreya kapitalining Hindistonga kirib kelishiga zamin yaratdi;

Texnologik diplomatiya orqali — innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'ydi;

Madaniy-iqtisodiy diplomatiya orqali — ta'lim, turizm va madaniy almashinuvni kuchaytirdi.

⁵ Rajan, R. (2021). Bilateral Trade Efficiency under CEPA Agreements. Indian Economic Review, 66(2), 89–110.

Bu holat iqtisodiy diplomatiyaning turli shakllari o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Masalan, Hyundai, Samsung, LG kabi yirik koreys kompaniyalari Hindistonda zavodlar ochib, minglab ish o‘rinlarini yaratgan. Shu bilan Koreya Hindiston iqtisodiyotiga “yumshoq kuch” sifatida kirib keldi.



2-rasm. “Hindiston va Janubiy Koreya kompaniyalarining sohalar bo‘yicha taqsimoti”

2-rasm izohi: “Hindiston va Janubiy Koreya kompaniyalarining sohalar bo‘yicha taqsimoti”

Mazkur rasmda Hindiston va Janubiy Koreya kompaniyalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimoti qiyosiy tahlil qilingan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, Hindistonda kompaniyalarning katta qismi axborot texnologiyalari (IT), farmatsevtika, xizmatlar sohasi hamda yengil sanoatda jamlangan.⁶ Bu holat Hindiston iqtisodiyotining xizmatlar sektoriga yo‘naltirilganligini, shuningdek, dasturiy ta‘minot va outsourcing bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. IT kompaniyalarining yuqori ulushi raqamli iqtisodiyot va innovatsion startaplarning tez rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Janubiy Koreyada esa kompaniyalar asosan sanoat, elektronika, avtomobilsozlik, kemasozlik va mashinasozlik tarmoqlarida to‘plangan. Bu mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarishga va yuqori texnologiyali sanoatga tayanishini ifodalaydi. Samsung, Hyundai, LG kabi yirik korporatsiyalar elektronika va avtomobil sanoatida yetakchi o‘rin egallab, eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, rasm ikki davlatning iqtisodiy modelidagi farqlarni

⁶ CEPA Implementation Review Committee. (2022). Comprehensive Economic Partnership Progress Report.

yaqqol namoyon etadi: Hindiston ko‘proq bilimga asoslangan va xizmatlar sektoriga tayanadi, Janubiy Koreya esa sanoatlashgan, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish modeli bilan ajralib turadi. Bu farqlar ularning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanish strategiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi⁷.

Savdo hajmining oshishi CEPA imzolanganidan so‘ng Hindiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi tovar va xizmatlar savdosi sezilarli darajada oshdi. Xususan: Avtomobilsozlik va elektronika sohaslarida eksport va import hajmlari ko‘paydi. Axborot texnologiyalari va boshqa xizmatlar sohasida ham ikki tomonlama savdo imkoniyatlari kengaydi. CEPA ikki davlat kompaniyalariga bir-birining mamlakatlarida sarmoya kiritishni osonlashtirdi. Koreya kompaniyalari Hindistonda avtomobilsozlik, elektronika va IT loyihalarini rivojlantira boshladi. Hindiston kompaniyalari Janubiy Koreya bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnologik hamkorlik va bilim almashinuvi CEPA doirasida yuqori texnologiyali sanoatlarda hamkorlik kuchaydi: Koreya avtomobil va elektronika kompaniyalari Hindiston bilan texnologiya transferi va R&D loyihalarini amalga oshirdi. Bu esa Hindistonning texnologik salohiyatini oshirishga yordam berdi.⁸ Ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy rivojlanish CEPA natijasida yangi korxonalar ochilib, ish o‘rinlari yaratildi. Xususan, Hindistonning IT va elektronika sektori ishchi kuchini jalb qildi. Koreya investitsiyalari orqali Hindiston sanoati modernizatsiyadan o‘tdi.

Sanoat sektorlaridagi raqobat Hindistonning avtomobil va elektronika sohalari Janubiy Koreya kompaniyalarining yuqori sifatli mahsulotlari bilan raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch keldi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar ba‘zan narx va texnologiya jihatidan zaifroq bo‘ldi.

Tijorat va bojxona to‘siqlari CEPA mavjud bo‘lsa ham, ayrim mahsulotlarga nisbatan bojxona imtiyozlari va standartlar bilan bog‘liq cheklovlar saqlanib qoldi. Bu esa savdo hajmining yanada tez oshishiga to‘sqinlik qildi.


Investitsiya bilan bog‘liq xavflar Hindiston bozoriga kirgan Koreya kompaniyalari ba‘zan me‘yoriy va siyosiy o‘zgarishlar tufayli moliyaviy xavfga duch keldi. Shuningdek, Hindiston kompaniyalari uchun Koreya bozoriga kirish yuqori talablar va qoidalar tufayli murakkab bo‘ldi.

Texnologik va madaniy tafovutlar Texnologiya transferi va hamkorlik jarayonida turli ish uslublari va madaniy tafovutlar samaradorlikni pasaytirishi mumkin. CEPA‘ning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, muayyan cheklovlar ham mavjud. Ijobiy jihatlar Muammolar Savdo hajmining ortishi Savdo balansida Koreya foydasiga nomutanosiblik Investitsiya oqimlarining ko‘payishi Hindiston ishlab chiqaruvchilarining raqobat bosimi Texnologik hamkorlikning kuchayishi Raqamli

⁷ KOTRA. (2023). Annual Trade and Investment Report. Seoul.

⁸ Ministry of Trade, Industry and Energy of Korea (MOTIE). (2023). Korea’s Economic Diplomacy Overview.

savdo va ekologik standartlar bo'yicha farqlar Diplomatik ishonchning ortishi Siyosiy manfaatlar uyg'unlashmasligi (AQSh–Xitoy raqobati ta'siri) Mualliflar (Banik & Kim, 2022) ta'kidlaganidek, CEPA'ning qayta ko'rib chiqilishi zarur.



3-rasm. Turli diplomatiya turlarining samaradorlik bahosi.

Eng yuqori natija savdo diplomatiyasiga (9 ball) to'g'ri kelgan, chunki CEPA bojxona to'siqlarini sezilarli kamaytirdi. Investitsiya va mintaqaviy diplomatiya ham yuqori o'rinda, bu esa ikki davlatning Indo-Pacific strategik sherikligiga mos keladi. 3-rasmda turli diplomatiya turlarining samaradorligi qiyosiy baholanib, ularning ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishdagi real ta'siri yoritilgan. Grafik natijalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich savdo diplomatiyasiga to'g'ri kelib, u 9 ball bilan baholangan. Buning asosiy sababi sifatida CEPA (Comprehensive Economic Partnership Agreement) doirasida bojxona to'siqlarining sezilarli darajada qisqartirilgani, tarif va notarif cheklovlarning yumshatilgani hamda o'zaro savdo hajmining barqaror o'sishi keltiriladi. Ushbu kelishuv eksport-import jarayonlarini soddalashtirib, xususiy sektor faolligini oshirishga xizmat qilgan.⁹

Investitsiya diplomatiyasi ham yuqori natija ko'rsatib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi, sanoat zonalari va qo'shma korxonalar tashkil etilishi bilan izohlanadi. Bu esa texnologiya transferi va bandlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mintaqaviy diplomatiya samaradorligi ham yuqori baholanib, uning Indo-Pacific strategik sherikligi doirasida xavfsizlik, logistika va infratuzilma loyihalarini muvofiqlashtirishdagi roli alohida ta'kidlanadi.

⁹ Government of India, Ministry of Commerce. (2023). CEPA Trade Statistics Bulletin.

Hududiy barqarorlikni ta'minlash mintaqaviy diplomatiya davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga xizmat qiladi. Masalan, Hindiston va Janubiy Koreya CEPA orqali mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Bu hududiy ziddiyatlarni kamaytirish va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Savdo va investitsiya aloqalarini mustahkamlash mintaqaviy diplomatiya ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o'rtasida strategik iqtisodiy hamkorlikni rivojlantiradi.¹⁰ Hududiy sheriklar o'rtasida tarif va bojxona imtiyozlarini kelishish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishni osonlashtiradi. Natijada, mintaqaviy savdo hajmi va sarmoyalar oshadi.

Texnologik va innovatsion hamkorlik. Mintaqaviy diplomatiya texnologik bilim almashuvini tezlashtiradi. Hududiy R&D loyihalari, texnologiya transferi va startup hamkorliklari orqali iqtisodiyot modernizatsiyalanadi. Madaniy va ijtimoiy integratsiya. Diplomatiya nafaqat iqtisodiy, balki madaniy sohalarida ham aloqalarni rivojlantiradi. Mintaqaviy diplomatiya turli xalqlar o'rtasida madaniy anglashuv va hamkorlikni kuchaytiradi. Strategik va geopolitik rol mintaqaviy diplomatiya hududiy yetakchilik va strategik pozitsiyani mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, Janubiy Koreya va Hindiston mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik orqali o'z strategik manfaatlarini ilgari suradi.

Xulosa.

India–Republic of Korea CEPA bitimi so'nggi o'n yillikda Osiyo mintaqasida iqtisodiy diplomatiyaning samarali va barqaror mexanizmlaridan biri sifatida shakllandi. Ushbu bitim ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarini sezilarli darajada kengaytirib, o'zaro tovar va xizmatlar ayirboshlash hajmining oshishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, CEPA investitsiya muhitini yaxshilash orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining barqarorlashuviga hamda sanoat, infratuzilma va ishlab chiqarish sohalarida qo'shma loyihalarining rivojlanishiga imkon yaratdi. Bitim doirasida yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlik chuqurlashib, raqamli texnologiyalar, avtomobilsozlik, elektronika va energetika kabi strategik tarmoqlarda tajriba almashinuvi jadallashdi.¹¹ Natijada, CEPA nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta'minlovchi huquqiy asos, balki Hindiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlovchi muhim diplomatik instrument sifatida namoyon bo'ldi.

Bitim doirasida yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlik chuqurlashib, raqamli texnologiyalar, avtomobilsozlik, elektronika va energetika kabi strategik tarmoqlarda tajriba almashinuvi jadallashdi.

¹⁰ OECD. (2023). Economic Survey of Korea. Paris: OECD Publishing.

¹¹ UNCTAD. (2023). World Investment Report 2023. Geneva: United Nations.

Natijada, CEPA nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta'minlovchi huquqiy asos, balki Hindiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlovchi muhim diplomatik instrument sifatida namoyon bo'ldi. Umuman olganda, mazkur bitim Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya va geoiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muvaffaqiyatli hamkorlik modeli sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, savdo balansidagi nomutanosiblik va mintaqaviy siyosiy raqobat kabi omillar CEPA'ning kelajakdagi rivojlanishini murakkablashtirmoqda. Shunday bo'lsa-da, CEPA ikki davlatning iqtisodiy diplomatiyasini mustahkamlovchi strategik vosita bo'lib qolmoqda. Kelajakda CEPA 2.0 modeli doirasida raqamli savdo, yashil energetika, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish ikki davlatning global iqtisodiy tizimdagi mavqeini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Banik, N. & Kim, S. (2022). India–Republic of Korea CEPA: Assessment and Future Path. Seoul: Yonsei University Press.
2. Park, J. (2021). Economic Diplomacy in East Asia. Seoul: KDI Press.
3. Sharma, P. (2023). India's Strategic Economic Diplomacy. New Delhi: Springer India.
4. Kim, H.J. (2020). Trade Complementarities between India and Korea: A Quantitative Study. *Journal of Asian Economics*, 71(3), 102–120.
5. Rajan, R. (2021). Bilateral Trade Efficiency under CEPA Agreements. *Indian Economic Review*, 66(2), 89–110.
6. CEPA Implementation Review Committee. (2022). Comprehensive Economic Partnership Progress Report.
7. KOTRA. (2023). Annual Trade and Investment Report. Seoul.
8. Ministry of Trade, Industry and Energy of Korea (MOTIE). (2023). Korea's Economic Diplomacy Overview.
9. Government of India, Ministry of Commerce. (2023). CEPA Trade Statistics Bulletin.
10. OECD. (2023). Economic Survey of Korea. Paris: OECD Publishing.
11. UNCTAD. (2023). World Investment Report 2023. Geneva: United Nations.
12. Hyundai Motor Company. (2022). Sustainability and Investment Review.
13. Samsung Group. (2023). Global Technology Diplomacy Report.
14. Indian Council for Research on International Economic Relations (ICRIER). (2022). Policy Paper on CEPA 2.0.